


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**CHINESE RHETORIC IN WORLD LINGUISTICS: CONTEMPORARY RESEARCH AND ITS DISTINCTIVE CHARACTERISTICS**

Nargiz Muxamataminovna Matkarimova
Tashkent State University of Oriental Studies
3rd-year PhD student
E-mail: matkarimova.nargiz.@bk.ru
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Chinese rhetoric, discourse, contrastive rhetoric, written discourse, communication, pragmatics.

Abstract: This article examines the role of Chinese rhetoric in world linguistics based on modern scholarly research. The study highlights the distinctive features of Chinese written and spoken discourse and reveals its differences from Western rhetorical traditions.

Received: 15.05.26

Accepted: 16.05.26

Published: 17.05.26

**DUNYO TILSHUNOSLIGIDA XITOIY RITORIKASI:
ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLAR
(Andy Kirkpatrick, Xu Zhichang va Jian Koh-cheng ishlari asosida)**

Nargiz Muxamataminovna Matkarimova
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
3-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: matkarimova.nargiz.@bk.ru
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: xitoy ritorikasi, diskurs, kontrastiv ritorika, yozma nutq, kommunikatsiya, pragmatika.

Annotatsiya: Mazkur maqolada xitoy ritorikasining dunyo tilshunosligidagi o‘rni zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Xitoy yozma va og‘zaki nutqining o‘ziga xos xususiyatlari va uning ahamiyati g‘arb ritorikasidan farqli jihatlari ochib beriladi.

**КИТАЙСКАЯ РИТОРИКА В МИРОВОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ: СОВРЕМЕННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ И СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ**

Наргиз Мухаматаминовна Маткаримова
Ташкентский государственный университет востоковедения

Базовый докторант 3-го курса
Эл. почта: matkarimova.nargiz.@bk.ru
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: китайская риторика, дискурс, контрастная риторика, письменная речь, коммуникация, прагматика.	Аннотация: В данной статье анализируется место китайской риторики в мировой лингвистике на основе современных научных исследований. Рассматриваются особенности китайской письменной и устной речи, а также раскрываются её отличительные черты по сравнению с западной риторической традицией.
--	--

Til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy dialektik munosabatni aks ettiruvchi lingomadaniy hamda pragmalingvistik mazmunga ega bo'lgan ilmiy mulohaza sifatida namoyon bo'ladi. Til faqat kommunikativ vosita emas, balki milliy mentalitet, etnomadaniy qadriyatlar va kollektiv tafakkur kabi tushunchalar ekanligi ta'kidlanadi. Bu esa zamonaviy tilshunoslikda ustuvor ahamiyat kasb etayotgan antropotsentrik paradigma bilan bevosita bog'liqdir.

Shu jumladan, har bir til nafaqat fikrni ifodalaydi, balki o'z xalqining tafakkuri va madaniy dunyoqarashini ham aks ettiradi. Shu sababli turli xalqlarning nutq qurilishi va fikrni yetkazish usullari bir-biridan farq qiladi. Dunyo tilshunosligida uzoq vaqt davomida ritorika asosan g'arb modeli orqali tushuntirilib kelingan bo'lsa, so'nggi yillarda sharq, ayniqsa xitoy ritorikasiga bo'lgan qiziqish keskin ortdi. Xitoy nutq madaniyati o'zining bilvosita ifoda usuli, kontekstga bog'liqligi va axloqiy asoslangan kommunikatsiyasi bilan ajralib turadi. Zamonaviy olimlar ushbu xususiyatlarni o'rganib, xitoy ritorikasining mustaqil nazariy asoslarini shakllantirishga harakat qilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda ritorika faqat chiroyli gapirish yoki yozish san'ati sifatida emas, balki fikrni tashkil etish va auditoriyaga ta'sir qilish tizimi sifatida o'rganiladi. Biroq keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Sharq, ayniqsa xitoy nutq madaniyati o'ziga xos kommunikativ qonuniyatlarga ega. Xitoy ritorikasining mustaqil nazariy paradigma sifatida o'rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki qiyosiy filologiya, madaniyatlararo kommunikatsiya va sharqshunoslik uchun ham muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Aslida ritorika ishontirish san'ati sifatida tushuniladi. Biroq xitoy an'anasida ishontirish tushunchasi g'arb tilshunosligidan ancha farq qiladi. Jumladan, G'arb modelida nutqning markazida fikrni asoslash va mantiqiy dalillar tursa, xitoy an'anasida esa asosiy e'tibor kommunikativ uyg'unlikka qaratiladi.

Shu bois, xitoy ritorikasida fikr ko'pincha bilvosita ifodalanadi, tinglovchi yoki o'quvchining o'zi xulosa chiqarishi kutiladi, keskin qarama-qarshilikdan qochiladi va nutqdagi

axloqiy uyg'unlikga katta ahamiyat qaratiladi. Xitoy ritorikasini mukammal darajada tushunish uchun asosan Andy Kirkpatrick, Xu Zhichang va Jian Koh-cheng kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlaridan o'rganish mumkin. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida xitoy yozma va og'zaki nutqining qanday qurilishini aniq misollar orqali tushuntirib berilgan. Darvoqe, ushbu olimlarning ilmiy qarashlari asosida xitoy ritorikasining g'arb modelidan farqli jihatlari ko'rsatib beriladi[1].

Tadqiqotlar natijasida shuni anglash mumkinki, Andy Kirkpatrick va Xu Zhichang kabi olimlarning ilmiy qarashlariga ko'ra, xitoy yozuv an'anasi g'arb akademik yozuv modeli bilan bir xil emas. Mualliflarning ta'kidlashicha, g'arb matnida muallif odatda boshida asosiy fikrini aytadi, keyin dalillar beradi. Xitoy matnida esa mavzu sekin ochiladi, kontekst beriladi, o'quvchining ilmiy fikrlarini asta-sekin asosiy yakdil g'oyaga olib kelinadi. Olimlarning fikriga ko'ra, bu uslub o'quvchiga hurmat ko'rsatish va uni fikrlash jarayoniga qo'shish bilan bog'liq deb ta'kidlaydi. Xitoy matnlarida yozuvda uyg'unlik muhim hisoblanadi. Kirkpatrick va Xu Zhichang tahlillariga ko'ra xitoy yozuvining asosiy maqsadi bahsda yutish emas, balki matn ichida uyg'unlik yaratish hisoblanadi. Shu sababli keskin qarama-qarshi fikrlar kamroq uchraydi[2]. Xitoy ritorikasida kontekst kuchli rol o'ynaydi. Mualliflarning tushuntirishicha, xitoy matnlarini tushunish uchun faqat so'zlar emas, balki uning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstni ham bilish lozim deb hisoblanadi.

Jian Koh-cheng tadqiqotlari natijasida xitoy ritorikasi faqat tarixiy hodisa emasligini tahlil qiladi. Uning tahlilari natijasida zamonaviy nutqlarda ham qadimgi elementlar saqlanib qolganini ta'kidlaydi. Jian Koh-chengning fikriga ko'ra axloqiy obro' muhim hisoblanadi[3]. Xitoy nutqida notiqning shaxsiy obro'si va axloqiy pozitsiyasi auditoriyani ishontirishda katta rol o'ynaydi deb ta'kidlaydi. Bu g'arb ritorikasidagi mantiqiy dalildan farq qiladi. Jian Koh-chengning ilmiy qarashlarida xitoy nutqida tarixiy voqealar va qadimgi donishmandlarning so'zlari tez-tez ishlatilgan[4]. Olimning kuzatuvlari natijasida, xitoy ritorikasida asosiy maqsad qarama-qarshilik yaratish emas, balki ijtimoiy muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilarning fikrlarini umumiy jihati shundaki, har uchta tadqiqotchining ilmiy qarashlari ham bir xil xulosaga keladi:

- xitoy ritorikasi bilvosita kommunikatsiyaga asoslanadi;
- Xitoy matnlarida yozuvda uyg'unlik muhim hisoblanadi
- axloqiy va madaniy omillar kuchli rol o'ynaydi;
- o'quvchi yoki tinglovchi faol fikrlovchi sifatida qaraladi deb ta'kidlab keltiradi[5].

Binobarin xitoy ritorikasini mustaqil kommunikativ model sifatida ko'rsatib quyidagi muhim ilmiy natijalar yuzaga keladi: a) xitoy akademik yozuvini to'g'ri baholash mumkin bo'ladi; b) turli madaniyatlar yozuv uslublarini tushunish osonlashadi; c) xalqaro ilmiy yozishda xatolar kamayadi, diskurs tahlili uchun yangi yondashuv paydo bo'ladi deb keltirib o'tadi[6].

Tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy qarash yuzaga keladi, ya'ni xitoy ritorikasi oddiy fikrni isbotlab beradigan mantiqiy asos tizimi emas, balki madaniyat, tarix va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan diskursiv model deb hisoblanadi[7]. Binobarin, xitoy yozma va og'zaki nutqini g'arb ritorikasi mezonlari bilan baholash har doim ham to'liq natija bermaydi. Aksincha, kontrastiv yondashuv turli yozuv an'alarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan tadqiqotlardan quyidagi xulosaga ega bo'lish mumkin, ritorikasi dunyo tilshunosligida alohida va mustaqil kommunikativ tizim sifatida shakllangan. Tadqiqotchi Andy Kirkpatrick va Xu Zhichanglarning xitoy yozma nutqining strukturasi g'arb yozuv modelidan tubdan farq qilishini asoslab beradi. Ushbu olimlarning fikriga ko'ra, xitoy matnida fikr to'g'ridan-to'g'ri berilmaydi, balki o'quvchini asta-sekin fikr yuritishga undash orqali shakllantiriladi[8]. Natijada bu uslub kontekstga tayangan holda kommunikativ uyg'unlikni saqlashga xizmat qiladi.

Jian Koh-cheng tadqiqotidab esa xitoy ritorikasi tarixiy ildizlarga ega bo'lib, Konfutsiy va Mencius kabi mutafakkirlarning qarashlari zamonaviy nutqlarda ham davom etishini ko'rsatadi. Darvoqe, uning tadqiqoti shuni isbotlaydiki, xitoy nutqida axloqiy obro', tarixiy misollar va ijtimoiy muvozanat tushunchasi ishonirishning asosiy vositasi hisoblanadi[9].

Binobarin, xitoy ritorikasi o'quvchini bahs orqali emas, balki mulohaza orqali ishonirishga harakat qiladi. Bu esa zamonaviy madaniyatlararo kommunikatsiya, yozuv va diskurs tahlili uchun juda muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

卢兴 Lu Xingning "Rhetoric in Ancient China, Fifth to Third Century BCE" nomli tadqiqot ishida qadimgi Xitoyda ritorikaning shakllanishi va rivojlanishini lingvistik, tarixiy hamda falsafiy nuqtai nazardan o'rganishga bag'ishlangan muhim ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Muallif miloddan avvalgi V–III asrlar oralig'ida, ya'ni Xitoy tarixidagi siyosiy va falsafiy o'zgarishlar yuqori bo'lgan davrda ritorikaning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini tahlil qiladi. Tadqiqotda xitoy ritorikasi faqat nutq san'ati sifatida emas, balki siyosiy maslahat, axloqiy tarbiya va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlovchi kommunikativ tizim sifatida talqin qilinadi[10]. Tadqiqotch 卢兴 Lu Xingning ta'kidlashicha, qadimgi Xitoy notiqalari tinglovchini mantiqiy bosim orqali emas, balki axloqiy asoslar, tarixiy misollar va bilvosita ifoda vositalari orqali ishonirishga harakat qilgan. Muallif xitoy ritorikasining asosiy lingvistik xususiyatlari sifatida parallel sintaktik tuzilmalar, qisqa va mazmunli nutq birliklari, metaforik ifodalar hamda kontekstga kuchli bog'liqlikni isbotlab beradi[11]. Natijada ushbu elementlar xitoy nutqining estetik va pragmatik jihatdan samarali bo'lishini ta'minlagan. Jumladan, olib borilgan tadqiqotda konfutsiylik va boshqa qadimgi falsafiy maktablarning ritorik fikrlashga ta'siri keng tahlil qilingan.

卢兴 Lu Xing xitoy va g'arb ritorikasini qiyosiy tahlil nuqtai nazardan o'rganadi va xitoy ritorikasining asosiy maqsadi bahsda g'alaba qozonish emas, balki ijtimoiy muvozanat va uyg'unlikni saqlash ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu jihatdan tadqiqot quyidagi asosiy usullar orqali tahlil qilinadi: kontrastiv ritorika, diskurs tahlili va pragmatika sohalarida muhim nazariy manba sifatida qaraladi[12]. Umuman olganda, 卢兴 Lu Xingning ushbu tadqiqot ishi qadimgi Xitoy ritorikasini mustaqil kommunikativ va lingvistik tizim sifatida tushuntirib, dunyo tilshunosligida xitoy ritorikasi tadqiqotlarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi (Lu, X. (1998). *Rhetoric in Ancient China: Fifth to Third Century BCE*. University of South Carolina Press.) [13].

Tadqiqotchi 刘亚猛 Liu Yamengning "Chinese Rhetoric: Theory and Practice" nomli tadqiqot ishida xitoy ritorikasining nazariy asoslari, lingvistik xususiyatlari va kommunikativ funksiyalarini o'rganishga bag'ishlangan muhim ilmiy ish hisoblanadi[14]. Jumladan, muallif xitoy ritorikasini mustaqil madaniy va lingvistik tizim sifatida tahlil qilib, uni g'arb ritorikasi mezonlari orqali baholash yetarli emasligini asoslab ko'rsatadi. Tadqiqotda xitoy ritorikasining shakllanishi qadimgi xitoy falsafasi, ayniqsa konfutsiylik an'analari bilan bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Muallifning ta'kidlashicha, xitoy ritorikasining asosiy maqsadi tinglovchini mantiqiy asoslar orqali ishontirish emas, balki ijtimoiy uyg'unlikni saqlash, axloqiy ta'sir ko'rsatish va kommunikativ muvozanatni ta'minlashdan iborat hisoblanadi. 刘亚猛 Liu Yamengning tadqiqotlarida xitoy nutqining asosiy lingvistik xususiyatlari sifatida bilvosita ifoda, kontekstga bog'liq ma'no, metaforik fikrlash va qisqa, mazmunli nutq konstruktsiyalarini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan elementlar xitoy ritorikasining pragmatik jihatdan murakkabligini va uning kommunikativ samaradorligini belgilab beradi. Natijada, muallif xitoy tilida ritorik strategiyalar ko'pincha tinglovchining o'zi xulosa chiqarishiga imkon beradigan tarzda quriladi. Tadqiqotlar natijasida xitoy va g'arb ritorikasi kontrastiv yondashuv asosida taqqoslanib, ularning asosiy farqlari ochib beriladi. G'arb ritorikasi mantiqiy asosga asoslangan bo'lsa, xitoy ritorikasi ko'proq axloqiy va pragmatik ta'sirga yo'naltirilganligi bilan bir – biridan ajralib turadi. Ushbu yo'nalish orqali muallif xitoy ritorikasining diskurs tahlili, pragmatika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, 刘亚猛 Liu Yameng tadqiqot ishida xitoy ritorikasini tilshunoslik doirasida mustaqil ritorik paradigma sifatida tushuntirib, dunyo tilshunosligida kontrastiv ritorika nazariyasining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. (Liu, Y. (1993). *Chinese rhetoric: Theory and practice*. PhD Dissertation, University of Oregon.)

Tadqiqotchi 毛陆明 Mao LuMingning "Chinese Rhetorical Tradition and Comparative Rhetoric" nomli tadqiqot ishida xitoy ritorikasini dunyo tilshunosligi va kontrastiv ritorika

doirasida o'rganishga bag'ishlangan muhim ilmiy ish hisoblanadi [15]. Binobarin, muallif xitoy ritorikasini g'arb ritorikasi mezonlari orqali baholash noto'g'ri ekanligini ta'kidlab, uni mustaqil tarixiy-madaniy va lingvistik tizim sifatida tahlil qiladi. Tadqiqotda xitoy ritorikasining shakllanishi qadimgi xitoy falsafasi, ayniqsa konfutsiylik ta'limoti bilan uzviy bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. Muallifning fikriga ko'ra, xitoy ritorikasining asosiy maqsadi tinglovchini mantiqiy asoslar yordamida majburiy ishontirish emas, balki ijtimoiy uyg'unlikni saqlash, axloqiy ta'sir ko'rsatish hamda kommunikativ muvozanatni ta'minlashdan iborat hisoblanadi. 毛陆明 Mao LuMing xitoy ritorikasining asosiy lingvistik va pragmatik xususiyatlari sifatida bilvosita ifoda, kontekstga bog'liq ma'no, metaforik fikrlash hamda parallel sintaktik tuzilmalarning keng qo'llanilishini ta'kidlab ko'rsatadi. Ushbu elementlar xitoy nutqining estetik va kommunikativ samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu jumladan, uning g'arb ritorikasidan farqli jihatlarini belgilaydi. Tadqiqotda kontrastiv ritorika yondashuvi asosida xitoy va g'arb nutq an'analari taqqoslanib, ularning kommunikativ maqsadlari va mantiqiy strategiyalari o'rtasidagi farqlar ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shu asnoda, muallifning xulosasiga ko'ra, xitoy ritorikasi axloqiy va ijtimoiy yo'naltirilgan kommunikativ tizim bo'lib, u pragmatika, diskurs tahlili va madaniyatlararo kommunikatsiya tadqiqotlarida muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, 毛陆明 Mao Lu Ming tadqiqot ishida xitoy ritorikasini lingvistik, madaniy va kommunikativ nuqtai nazardan tushuntirish uchun fundamental manba deb qaraladi va dunyo tilshunosligida kontrastiv ritorika nazariyasining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. (Mao, L. M. (1996). Chinese rhetorical tradition and comparative rhetoric. PhD Dissertation, Purdue University.)

Xulosa qilib aytganda, xitoy ritorikasini o'rganish masalasi tor lingvistik hodisa sifatida emas, balki transmadaniy kommunikatsiya, diskursiv tafakkur va xalqaro ta'lim makonidagi interkultural kompetensiyani shakllantiruvchi strategik fenomen sifatida talqin qilinmoqda. Xitoy ritorikasining o'ziga xosligi — fikrni implitsit tarzda ifodalash, yuqori kontekstual kommunikatsiyaga tayanish, semantik noaniqlik orqali kommunikativ muvozanatni saqlash va etik-pragmatik uyg'unlikka intilish kabi jihatlar bilan xarakterlanadi. Mazkur kommunikativ model konfutsiychilik, daoistik tafakkur va kollektivistik mentalitet ta'sirida shakllangan bo'lib, g'arb ritorikasidagi individualistik modelidan tubdan farqlanadi. Shu sababli xitoy ritorikasini chuqur o'rganish turli sivilizatsiyalarga mansub kommunikativ kodlarni to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kirkpatrick, A., & Xu, Z. (2012). Chinese Rhetoric and Writing: An Introduction for Language Teachers. Parlor Press.

2. Jian, K. (1984). A Study of the Influence of the Chinese Rhetorical Tradition on Current Speeches by Chinese Speakers in the Republic of China. MA Thesis, South Dakota State University.
3. Mao, L. M. (2006). Reading Chinese Fortune Cookie: The Making of Chinese American Rhetoric. Utah State University Press.
4. Liu, Y. (1996). "To Capture the Essence of Chinese Rhetoric." Rhetoric Review.
5. Lu, X. (1998). Rhetoric in Ancient China, Fifth to Third Century B.C.E.
6. You, X. (2010). Writing in the Devil's Tongue: A History of English Composition in China.
7. Connor, U. (1996). Contrastive Rhetoric: Cross-Cultural Aspects of Second-Language Writing.
8. Kaplan, R. (1966). Cultural thought patterns in intercultural education.
9. Confucius. Analects
10. Mencius. The Book of Mencius.
11. Drury, S. (2015). Incorporating Confucius into rhetorical theory studies.
12. Xu, Z. (2012). Chinese writing traditions and academic discourse.
13. Mao, L. M. (1996). Chinese rhetorical tradition and comparative rhetoric. PhD Dissertation, Purdue University.
14. Swales, J. (1990). Genre Analysis.
15. Hyland, K. (2005). Metadiscourse in Academic Writing.